YOSHLARNİNG HUQUQİY MADANİYATİ VA ONGİNİ YUKSALTİRİSHDA DAVLAT ORGANLARİ HAMDA FUQAROLİK JAMİYATİ İNSTİTUTLARİ VA JAMOAT BİRLASHMALARİNİNG O‘ZARO MUNOSABATLARİ VA İJTİMOİY SHERİKLİGİNİ TAKOMİLLASHTİRİSH

Jumanazarov Feruzbek Azamat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
https://orcid.org/0009-0000-0435-172X
yuristjumanazarov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy tezisda Yangi O‘zbekistonda yoshlarning huquqiy onги va madaniyatini yuksalitirishda davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan jamoat birlashmalarining o‘zaro hamkorligi va ijtimoiy sheriklik mehanizmlari tadqiq etilgan. Maqolada sohaga oid milliy qonunchilik bazasi tahlil qilinib, amaliyotda uchrayotgan formalizm, targ‘ibot usullarining zamonaviy yoshlar психологиясiga mos kelmasligi va faoliyatdagi tarqoqlik kabi muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot yakunida yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda raqamli texnologiyalardan фойдаланиш ("Youth Legal Tech"), "tengdosh-tengdoshga" (Peer-to-Peer) usulida volontyorlik korpuslarini tashkil etish hamda manzilli ijtimoiy profilaktika mehanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar:*Yoshlar, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik, huquqiy targ‘ibot, "tengdosh-tengdoshga", raqamlashtirish.*

Аннотация:*В данном научном тезисе исследованы механизмы взаимодействия и социального партнерства государственных органов и институтов гражданского общества, в частности общественных объединений, в повышении правовой культуры и правосознания молодежи в Новом Узбекистане. В работе проанализирована национальная законодательная база, выявлены такие проблемы, как формализм в проведении мероприятий, несоответствие традиционных методов пропаганды психологии современной молодежи и разобщенность действий. В заключении сформулированы научно-практические предложения по внедрению цифровых технологий ("Youth Legal Tech"), развитию правового волонтерства по принципу «равный-равному» (Peer-to-Peer) и совершенствованию адресной социальной профилактики.*

Ключевые слова:*Молодежь, правовая культура, правосознание, государственные органы, общественные объединения, гражданское общество, социальное партнерство, правовая пропаганда, «равный-равному», цифровизация.*

Abstract:*This scientific thesis examines the mechanisms of interaction and social partnership between state bodies and civil society institutions, particularly public associations, in enhancing the legal culture and legal awareness of youth in New Uzbekistan. The paper analyzes the national legislative framework and highlights practical issues such as formalisms in events, the mismatch between traditional advocacy methods and modern youth psychology, and fragmented efforts. The research concludes with scientific and practical recommendations, including the adoption of digital technologies ("Youth Legal Tech"), the organization of volunteer corps based on the "Peer-to-Peer" approach, and the improvement of targeted social prevention mechanisms.*

Keywords:*Youth, legal culture, legal awareness, state bodies, public associations, civil society, social partnership, legal advocacy, Peer-to-Peer, digitalization.*

I. Kirish va tadqiqotning dolzarbligi

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va huquqiy davlat barpo etish bosqichida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mustahkam va barqaror jamiyatning poydevori esa yuqori huquqiy ong va madaniyatga ega bo‘lgan yosh avlod hisoblanadi. Mamlakat aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda qonunlarga hurmat va bo‘ysinish hissini shakllantirish nafaqat huquqiy, balki milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik masalasidir.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot aloqalari va globallashuv davrida yoshlar turli xil mafkuraviy tahdidlar, kiberjinoyatchilik va huquqiy nigilizm (huquqni inkor etish va mensimaslik) xavfiga duch kelmoqda. Bunday sharoitda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning huquqiy madaniyatini oshirish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi va davlat organlarining zimmasidagi vazifa bo‘lib qolmay, balki fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan kompleks hamkorlikni talab qiladi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat organlari va jamoat birlashmalarining bu boradagi faoliyati ba’zan muvofiqlashmagan, formal xarakterda va an’anaviy (samarasiz) usullar bilan cheklanib qolmoqda. Shu sababli,

davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik mehanizmlarini chuqur o‘rganish, mavjud bo‘shliqlarni aniqlash hamda zamon talablariga mos yangicha sheriklik modellarini ishlab chiqish favqulodda muhim va dolzarb hisoblanadi.

II. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari va metodologiyasi

Tadqiqotning maqsadi: Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksalirishda davlat organlari va jamoat birlashmalari o‘rtasidagi hamkorlikning nazariy-huquqiy va amaliy asoslarini kompleks tahlil qilish, mavjud muammo va to‘siqlarni aniqlash hamda ushbu ijtimoiy sheriklikning ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy takliflar hamda tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksalirishning nazariy-huquqiy asoslari va konseptual jihatlarini tadqiq etish.

2. Davlat organlari va jamoat birlashmalari o‘rtasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi milliy qonunchilik bazasini tahlil qilish.

3. Hozirgi kunda o‘tkazilayotgan huquqiy targ‘ibot va tarbiya tadbirlarining amaliy samaradorligini baholash va asosiy muammolarni ajratib ko‘rsatish.

4. Raqamlashtirish va zamonaviy media-texnologiyalar sharoitida jamoat birlashmalari va davlat organlarining integratsiyalashgan hamkorlik modellarini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy va sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Milliy qonunchilik hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, xalqaro tajriba hamda sohaga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar chuqur o‘rganildi.

III Yoshlar huquqiy madaniyatini amalga oshirishning nazariy va qonunchilik asoslari

Yoshlar huquqiy madaniyati — bu shunchaki huquqiy bilimlar yig‘indisi emas, balki shaxsning qonunga hurmat bilan qarashi, o‘z huquq va majburiyatlarini anglashi hamda kundalik hayotda va jamiyatda kuzatiladigan voqeliklarga faol huquqiy pozitsiyadan turib munosabat bildirishidir.

Mustaqillik va islohotlar davrida ushbusohaning qonunchilik bazasi bosqichma-bosqich mustahkamlandi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini rag‘batlantirish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida mustahkamlandi.
- "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi Qonun: Bu hujjat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini, shu jumladan yoshlarning huquqiy ongi va

madaniyatini shakllantirish bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlarining vazifalarini aniq belgilab berdi.

- "Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida"gi va "Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida"gi Qonunlar: Davlat organlari bilan jamoat birlashmalari va NNTlar o‘rtasidagi hamkorlikning tashkiliy va huquqiy kafolatlarini yaratdi.
- Oliy Majlis va Prezident hujjatlari: Huquqiy targ‘ibot va tarbiyani tubdan yaxshilash, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksalitirish Konsepsiyasi hamda sohaga oid farmon va qarorlar hamkorlikning amaliy vektorlarini ko‘rsatib beradi.

Shunga qaramay, qonunchilikda belgilangan mehanizmlar va ularning ijtimoiy amaliyotdagi ijrosi o‘rtasida muayyan uzilishlar kuzatilmoqda.

IV. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligining hozirgi holati va muammoli jihatlari

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi kabi davlat organlari hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, turli yoshlar nodavlat tashkilotlari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi kabi tuzilmalar o‘rtasida muayyan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Biroq ushbu hamkorlik modelida bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

1. Formalizm va "hisobot berish" psixologiyasi

O‘tkazilayotgan huquqiy ma’rifiy va targ‘ibot tadbirlarining aksariyati kam sonli yig‘ilishlar va ma’ruzalardan iborat bo‘lib, ular asosan suratga tushish va yuqori tashkilotlarga hisobot berishga yo‘naltirilgan. Tadbirlarning sifati, mazmuni va eng muhimi — yoshlarning huquqiy dunyoqarashiga ta’siri (natijadorligi) yetarlicha baholanmaydi.

2. Targ‘ibot usullarining zamonaviy yoshlar psixologiyasiga mos kelmasligi

An’anaviy ma’ruza va zerikarli tushuntirish ishlari zamonaviy ("Z avlod") yoshlarning diqqatini torta olmayapti. Davlat organlari ko‘pincha murakkab va akademik yuridik tilda axborot beradi, bu esa yoshlar tomonidan axborotning qabul qilinishini qiyinlashtiradi. Jamoat birlashmalari esa bu axborotni kreativ shaklga keltirish uchun yetarlicha resurs va vakolatga ega bo‘lmasligi mumkin.

3. Tarqoqlik va muvofiqlashtiruvchi markazning yo‘qligi

Davlat organlari (masalan, IIV yoki Adliya) va jamoat birlashmalari (masalan, nodavlat markazlar) ko‘p hollarda bir-biridan mustaqil va ayri holda ish olib boradi. Bu faoliyatning takrorlanishiga va resurslarning behuda sarflanishiga olib keladi. Yagona strategik muvofiqlashtirish va ma’lumotlar bazasi mavjud emas.

4. Ijtimoiy sheriklik va moliyalashtirish mehanizmlarining cheklanganligi

Jamoat birlashmalari yoshlar orasida samarali huquqiy loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtmalardan foydalanish tartibi murakkabligi va resurslarning yetarli emasligi tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

5. Manzillilik tamoyilining buzilishi

Huquqiy targ‘ibot asosan oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi "faol va a’lochi" o‘quvchilar o‘rtasida olib borilmoqda. Natijada, eng ko‘p huquqiy yordam va e’tiborga muhtoj bo‘lgan "og‘ir" toifadagi, uyushmagan va ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar e’tibordan chetda qolib ketmoqda.

VII. XULOSA

Yoshlarning huquqiy madaniyati va ongini yuksalitirish — bu uzluksiz, murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u alohida olingan birgina davlat organining mehnati bilan amalga oshirilmaydi. Davlat organlarining huquqiy-moliyaviy resurslari hamda jamoat birlashmalarining egiluvchanligi, kreativligi va aholiga yaqinligi sinergiya (birlashgan kuch) effektini yaratadi.

Ijtimoiy sheriklikning innovatsion va raqamli modellariga o‘tish, formalizmdan voz kechish hamda targ‘ibot ishlarini manzilli tashkil etish orqali biz nafaqat qonunni biladigan, balki unga so‘zsiz rioya qiladigan, o‘z huquqlarini himoya qila oladigan va vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shadigan barkamol va faol yoshlar avlodini shakllantirishga erishamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023.

2. "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr.

3. "Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014-yil 25-sentabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksalitirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi Farmoni, 2019-yil 9-yanvar.

5. Saidov A.X. Huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati. – Toshkent: "Adolat", 2018.